

IBTIDOIY JAMOA DAVRIDA- ZARAUTSOY QOYATOSH SUR'ATLARI

Bo'rixonova Mahfuza Abdiali qizi

Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix ta'lim yo'nalishi
3- kurs 303- guruh talabasi
tel: +998940112590

Zarautsoy qoyatosh rasmlari -O'zbekiston hududidagi eng qadimgi qoyatosh rasmlari. Hisor tizmasining janubi-g'arbida, Ko'hitang tog'ining sharqiy yon bag'ridagi Zarautsoy darasidagi ungir va kamar toshlariga ishlangan ibtidoiy san'atning nodir namunalari hisoblanadi. ¹Surxondaryo viloyatida, Termizdan 100–110 km shimoli-g'arbida. Dastlab, cho'ponlar Zarautsoydagi tasvirlarni ko'rgan va arxeologlarga bu haqida xabar bergan. Keyinchalik dastlab, 1912-yilda arxeolog I. Fyodorov tomonidan topilgan. Arxeolog S.Lomayev, A.Roginskaya tomonidan 1938-1939 yillarda, Parfyonov 1940—1945 yillarda o'rganilgan. 200 dan ortiq rasmlar mezolit, neolit va keyingi davrlarga mansub. Rasmlar chizma tarzida kontur va soya uslubida qizil angob (oxra) bilan chizilgan. Zarautsoyda odamlarning itlar yordamida yovvoyi buqalarni ov qilish manzarasi tasvirlangan. Hayvonlar (yovvoyi buqa, it, tulki, yovvoyi cho'chqa, burama shoxli echki, jayran, tog' echkisi, hasharot va b.), turli buyumlar (o'qyoy, nayza, o'roqsimon qurollar), niqoblangan odamlar va boshqa o'ziga xos tarzda hayotiy qilib ishlangan. Zarautsoy ibtidoiy san'atning noyob yodgorligi sifatida yodgorliklarni muhofaza qilish maqsadida "Qizil kitob"iga kiritilgan.



Zarautsoy qoyatosh sur'atlari.

Respublikalarning barchasida qoyatoshlardagi rasmlar bilan milliy kadrlardan mutaxassis olimlar yo'q bo'lgani sababli, rus olimlari shug'ullanganlar. Ammo bu

¹ O'zME. Birinchi jild, Toshkent : 2000 yil

borada ham O‘zbekiston respublikasi akademik Ya. G‘. G‘ulomovni sa'yi xarakatlari tufayli o‘zini milliy mutaxassislarini olib borgan salmoqli ilmiy izlanishlari bilan ajralib turadi. O‘zbekistonning tog‘liq hududlarida mavjud bo‘lgan qoyatosh sur‘atlarini topish va tatqiq qilishda Ya. G‘. G‘ulomov, A. R, Muhammadjonov, A. Kabirov, M. Xo‘jamnazarovlarni xizmatlari katta. Aynan shu sohada O‘zbekistonimizda birinchi bo‘lib, A. Kabirov "O‘zbekistonda qoyatosh sur‘atlarini o‘rganish" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Shaxsan Ya. G‘ulomovning tashabbuslari bilan 1969 yildan boshlab qoya toshlardagi rasmlarni o‘rganish uchun maxsus guruh tashkil qilinib bu guruh A. Kabirov boshchiligida O‘zbekistonimizni tog‘liq rayonlarida qidiruv va ilmiy izlanishlar olib bordi. Qoyatosh rasmlari ishlanish texnikasiga ko‘ra ikki turga bo‘linib, biri bo‘yoq bilan, ikkinchisi esa urib, o‘yib ishqalash, chizish usuli bilan ishlangan rasmlardir. Nafaqat bizni O‘zbekistonimizda, balki Markaziy Osiyo hududidagi barcha hamdo‘stlik mamlakatlarida har hil_rangdagi bo‘yoq-oxra bilan ishlangan rasmlar ancha kam bo‘lib, urib, o‘yib, ishqalash, chizish usuli bilan ishlangan rasmlar, ya‘ni pet-rogliflar juda ko‘plab uchraydi. O‘zbekistondagi qoyatosh rasmlarining eng oliyjanob namunalariga mutaxassislarimizni xulosalariga ko‘ra Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Teraklisoy, Jarsoy, Tutlisoy, Krong‘u unqursoy, Chadansoy, Sho‘rbuloqsoy va boshqalarni kiritish mumkin. Bu joylardagi qoyatoshlarda O‘zbekistonimizni qadimgi va hozirgi hayvonot olamini aks ettiruvchi ajoyib rasmlarni ko‘rish mumkin.²

O‘zbekiston xududidagi eng qadimgi rasmlar buqa va echkilarni ov qilish manzarasini aks ettirgan, Zarautsoydagi rasmlar bo‘lib, uni xronologiyasi eramizdan avvalgi III-II ming yillikni o‘z ichiga oladi.³

Markaziy Osiyo hududidagi qoyatoshlar aks ettirilgan rasmlar ajdodlarimiz yaratgan qadimiy madaniyatini yoritishda arxeologik ashyolar kabi moddiy ashyo sifatida katta rol o‘ynaydi. Chunki bu rasmlarning mazmuni va manzaralar ma'nosida kelib chiqib, ajdodlarimizni xo‘jalik hayoti haqida hayvonlarni ov qilish, ularni qo‘lga o‘rgatish va nixoyat xonakilashtirish, oqibatda chorvachilikni vujudga kelishi haqidagi malumotlarga ega bo‘lish mumkin.⁴

O'zbekiston hududining Hisor tog' tizmasining janubiy-g'arbidagi Ko'hitang tog'ining yon bag'rida joylashgan daradagi ungir va kamar toshlariga ishlangan ibtidoiy san'atning nodir namunalari bo'lmish madaniyat maskanidir. Qadimiy ajdodlar yaratib qoldirgan bu osori-atiqalarni o'z bag'rida ming yillardan buyon asrab kelayotgan maskan Zaraut, Zarautsoy va Zarautkamar nomlari bilan yuritiladi. Zaraut -

² Abdulla Xolmirzayev. *Zarautsoy tilsimlari*, Qaraldi:12-avgust, 2023-yil, 10-bet, „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ davlat ilmiy nashriyoti, 2002 — 94-bet.

³ Roginskaya A., Zarautsay M.—L., 1950;

⁴ Pugachenkova G. A., Rem pel L. I., Vidayushiyesya pamyatniki izobrazitel'nogo iskusstva O'zbekistana, T., 1960;

qishloqning nomi, turli buloq suvlaridan yig'ilib paydo bo'lgan va Zaraut qishlog'i ichidan oqayotgan soyni Zarautsoy deydilar. Olimu muxlislarni lol qoldirgan Zaraut rasmlari chizilgan g'orlarni mahalliy tilda kamar deb atashadi, shundan Zarautkamar nomi paydo bo'lgan. Zarautsoy oqib-oqib Qizilolma soyga qo'shiladi, ana shu ikki soy borib-borib Qorabog'soyga, undan o'tib Maydonsoyga va nihoyat Loyliqsoyga birlashib, Turkondaryo(Sheroboddaryo)ga quyiladi, u esa yo'lini Amudaryogacha davom ettiradi.

Zarautsoy mamlakatimizda birinchi marta san'atshunoslik qo'riqxonasiga aylantirilgan noyob manba sifatida ham juda ardoqlidir. Ammo yuqoridagilarga qaramasdan, Zarautsoy osori atiqalarini saqlash sohasidagi ishlarni ko'ngildagidek deb bo'lmaydi. Hatto «Zarautsoy-95» va «Zarautsoy-98» ilmiy-amaliy xalqaro anjumanlarida sur'atlarni kelgusi avlodlar uchun asrab qolish haqida fikrlar yuritilganiga qaramasdan, to hozirgacha mutlaqo qarovsiz va himoyasiz qolayotgan Zarautsoy qoya rangli tasvirlarini amalda muhofaza etish lozim ko'rinadi.

Zarautsoy qoyatosh sur'atlari o'sha vaqtdagi insonlarning ilk tasavvuriy qobiliyatlari namunasi hamdir. Bu qoyatosh sur'atlari o'sha davr faunasini yaqqol tarzda ochib bergan ilk tasviriy sur'atlar desak, mubolag'a bo'lmaydi. Rasmlarda ov manzarasi hamda insonlarning ov qilish orqali taomlanoshini ham aks etadi sur'atlarimizda hamda davrlar osha insonlarning hayot tarzi ham o'zgarib borganligi va hayvonot dunyosini o'zgarib borganligi hozirgi davr bilan taqqoslaganimizda esa tubdan farq qilishini ko'rshimiz mumkin.

Adabiyotlar:

1. Roginskaya A., Zarausay M.—L., 1950;
2. Abdulla Xolmirzayev. Zarautsoy tilsimlari, Qaraldi:12-avgust, 2023-yil, 10-bet, „O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi“ davlat ilmiy nashriyoti, 2002 — 94-bet.
3. Poslavskaya O „Toshkent, O'zbekiston“, . Janubiy O'zbekiston tog'larida [1969], 1969.
4. Sagdullaev, A „Ташкент: Тамaddon“, . Бағрикенгликнинг тарихий илдиэлари, 2018.
5. Hoshimov M, Kucheryavix V. Tabiatning nodir sayrgohlari. Toshkent, "Mehnat" nashriyoti, 1991.
6. Pugachenkova G. A., Rem pel L. I., Vidayushiyesya pamyatniki izobrazitelnogo iskusstva O‘zbekistana, T., 1960.
7. Formozov A. A., Ocherki po pervobitnomu iskusstvu, M., 1969.
8. O'zMe. Birinchi jild Toshkent: 2000 yil.